

QATAR VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Orifjonov Xasanboy Baxrom o'g'li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy
jarayonlar yo'naliishi 1-bosqich magistranti
orifjonovxasanboy8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va strategik sheriklik darajasiga ko'tarilishi tahlil qilinadi. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, investitsion va madaniy-gumanitar hamkorlikning asosiyo yo'naliishlari ko'rib chiqilib, yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, savdo bitimlari va qo'shma loyihalarning ahamiyati yoritiladi. Maqolada O'zbekiston va Qatar xalqaro maydonidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash siyosati, shuningdek, mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga qo'shayotgan hissasi atroficha tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik kelajakda yanada chuqurlashib, Markaziy Osiyo va Fors ko'rfizi mintaqalari o'rtasida strategik ko'priq vazifasini o'tashi mumkin.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qatar, diplomatik munosabatlar, investitsiya, xalqaro hamkorlik, mintaqaviyaro hamkorlik, ShHT, Transafg'on temir yo'li, strategik sheriklik.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ КАТАРОМ И УЗБЕКИСТАНОМ

Орифжонов Хасанбай Бахромович

Ташкентский государственный университет востоковедения
Магистрант 1-го курса, направление «Международные отношения и
современные политические процессы»
orifjonovxasanboy8@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется становление, развитие и повышение до уровня стратегического партнерства дипломатических отношений между Узбекистаном и Катаром. Рассматриваются основные направления политического, экономического, инвестиционного и культурно-гуманитарного

сотрудничества двух стран, освещается значение визитов на высоком уровне, торговых соглашений и совместных проектов. В статье подробно анализируется политика взаимной поддержки Узбекистана и Катара на международной арене, а также их вклад в региональную стабильность и развитие. Результаты исследования показывают, что в будущем сотрудничество между двумя странами будет углубляться, превращая их в стратегический мост между Центральной Азией и регионом Персидского залива.

Ключевые слова: Узбекистан, Катар, дипломатические отношения, инвестиции, международное сотрудничество, межрегиональное сотрудничество, ШОС, Трансафганская железная дорога, стратегическое партнерство.

CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF RELATIONS BETWEEN QATAR AND UZBEKISTAN

Orifjonov Hasanboy Bakhrom O'g'li

Tashkent State University of Oriental Studies

1st-year Master's student, International Relations and Contemporary Political
Processes

orifjonovxasanboy8@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the formation, development, and elevation of diplomatic relations between Uzbekistan and Qatar to the level of strategic partnership. The main areas of political, economic, investment, and cultural-humanitarian cooperation between the two countries are examined, highlighting the significance of high-level official visits, trade agreements, and joint projects. The article provides an in-depth analysis of Uzbekistan and Qatar's mutual support policies on the international stage, as well as their contribution to regional stability and development. The research results indicate that cooperation between the two countries is likely to deepen in the future, serving as a strategic bridge between Central Asia and the Persian Gulf region.

Keywords: Uzbekistan, Qatar, diplomatic relations, investment, international cooperation, interregional cooperation, SCO, Trans-Afghan Railway, strategic partnership.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Qatar o‘rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib, har ikki davlat o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning yetakchi davlatlaridan biri sifatida o‘zining boy tabiiy resurslari, strategik geografik joylashuvi va iqtisodiy islohotlari bilan xalqaro hamjamiyatda tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Qatar esa Yaqin Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lib, dunyodagi eng yirik gaz exportchilaridandir.

Qatar va O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1997-yilda o‘rnatalgan bo‘lsa-da, ayniqsa so‘nggi yillarda ikki tomonlama aloqalar jadallik bilan rivojlanmoqda. Tomonlar siyosiy, iqtisodiy, investitsion va madaniy hamkorlikni chuqurlashtirishga intilib, yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, savdo bitimlari va qo‘shma loyihamorlari orqali o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘ymoqda.

Xususan, O‘zbekiston Qatarning investitsiyalarini jalb qilishga katta ahamiyat qaratib, infratuzilma, energetika, qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarida qo‘shma loyihamorni ilgari surmoqda. Qatar esa O‘zbekistonda biznes yuritish uchun yangi imkoniyatlarni o‘rganib, Markaziy Osiyo mintaqasida o‘z ta’sirini oshirishni maqsad qilmoqda. Shuningdek, har ikki davlat xalqaro tashkilotlar doirasida ham bir-birini qo‘llab-quvvatlab, global muammolarni hal etishda hamkorlik qilmoqda. **Tadqiqot usullari va metodlari :** Ushbu maqolani yozishda tarixiy-tadrijiy, kontent tahlil usullaridan foydalaniilgan.

MUHOKAMA

Qatar davlati O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan arab davlatlaridan biri hisoblanadi. Qatar Davlati O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 30- dekabrda tan oldi va 1997-yil 27-noyabrdan ikki davlat Turkiyada diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risida protokolni imzolashi aloqalarni yana-da mustahkamlanishiga zamin yaratdi¹.

2006-yilda Qatar Tashqi ishlar vazirligining maxsus vakili Saloh Ibrohim Al-Kuvari boshchiligidagi Qatar Davlat delegatsiyasi O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Tashrif chog‘ida delegatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashida uchrashuvlar o‘tkazdi, delegatsiya tarkibiga Qatardagi hukmron oila a’zosi Shayx Abdulloh bin Muhammad bin Saud Ol-Soniylar ham tashrif buyurdi, u delegatsiyaning tashrifi O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi yirik davlat deb hisoblaydigan Qatar Davlati Amirining shaxsiy topshirig‘iga binoan amalga oshirilganini ta’kidladi. Tashrif ikki davlat o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni yanada yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlar doirasida amalga oshirilayotgani hamda ikki davlat

¹ O‘zbekiston – Qatar munosabatlari yaqin tarixiga nazar.02.10.2023-URL: <https://uza.uz/posts/525155>

o‘rtasidagi ikki tomonlama uchrashuvlar doimiy xarakterga ega bo‘lishi, buning uchun zarur hamkorlik hujjatlari imzolangandan so‘ng Qatar birinchi bosqich sifatida O‘zbekistonga bir million AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritishni rejalashtirayotgani hamda Qatar Markaziy Osiyoda ilk elchixonasini O‘zbekistonda ochish niyatida ekaniga umid bildirdi².

2010-yilning 23-24-noyabr kunlari Qatar Amirning rasmiy taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Qatar davlatiga tashrif buyurdi. Prezident sharafiga faxriy qorovullar saf tortdi. Prezident Islom Karimov va Amir Shayx Hamad bin Xalifa Ol-Soniy faxriy minbarga ko‘tarildi. O‘zbekiston va Qatar davlat madhiyalari yangradi. So‘ng O‘zbekiston Prezidenti va Qatar Amiri faxriy qorovul safidan o‘tishdi³.

Uchrashuvda Qatar tomonidan Bosh vazir o‘rinbosari, energetika va sanoat vaziri Abdulloh bin Hamad al-Atiya va bir qator hukumat vakillari ishtirok etdilar. O‘zbekiston tomonidan esa Bosh vazirning birinchi o‘rinbosari, moliya vaziri Rustam Azimov, Bosh vazir o‘rinbosari, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri Elyor G‘aniyev, tashqi ishlar vaziri Vladimir Norov hamda O‘zbekistonning Qatardagi elchisi Abdulrafiq Hashimov ishtirok etdilar. Uchrashuv ishtirokchilarining lavozimi jihatidan e’tibor berilsa hamkorlikda asosan energetika, investitsiya va savdo-iqtisodiy hamkorlikka katta urg‘u berilganini ko‘rish mumkin.

Muzokaralar davomida tomonlar ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish hamda o‘zaro manfaatli bo‘lgan bir qator dolzarb masalalarni muhokama qildilar. Hamda Qatar amiri va O‘zbekiston Prezidenti ishtirokida quyidagi kelishuvlar va memorandumlar imzolandi:

- 1. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi bitim**
- 2. Huquqiy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim**
- 3. Savdo-iqtisodiy va texnik hamkorlik to‘g‘risidagi bitim**
- 4. Qatar neft xalqaro kompaniyasi va O‘zbekiston gaz milliy xolding kompaniyasi o‘rtasidagi anglashuv memorandumi**
- 5. Qatar va O‘zbekiston tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi anglashuv memorandumi**
- 6. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash bo‘yicha anglashuv memorandumi**
- 7. Qatar sarmoya jamg‘armasi va O‘zbekiston investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi o‘rtasidagi hamkorlik memorandumi**
- 8. Turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum**

والاستثماري والاقتصادي التجاري التعاون لدعم وفرصه الثانية العلاقات في نوعية نقلة تشكل السمو صاحب زياره: أوزبكستان في قطر دولة سفير²
05.06.2023-URL: <https://al-sharq.com/>

³ الدوحة يصل الأوزبكي الرئيس 24.11.2010-URL: <https://www.raya.com/>

Mazkur hujjatlarni Qatar tomonidan Bosh vazir o'rribbosari, energetika va sanoat vaziri Abdulloh bin Hamad al-Atiya, Davlat tashqi ishlar bo'yicha vaziri Ahmad bin Abdulloh Ol Mahmud, adliya vaziri Hasan bin Abdulloh al-G'anim, biznes va savdo vaziri shayx Jasim bin Abdulaziz bin Jasim Ol-Soni, atrof-muhit vaziri Abdulloh bin Muborak al-Abud al-Mu'ozodi va Qatar investitsiya jamg'armasi boshqaruv kengashi a'zosi doktor Husayn al-Abdulloh imzoladilar.

O'zbekiston tomonidan esa Bosh vazirning birinchi o'rribbosari, moliya vaziri Rustam Azimov, Bosh vazir o'rribbosari, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri Elyor G'aniyev hamda tashqi ishlar vaziri Vladimir Norov ushbu hujjatlarni imzoladilar⁴.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston va Qatar katta imkoniyatlarga hamda o'zaro aloqalarni rivojlantirish istiqbollariga ega ekanini ta'kidladi. Ayniqsa, transport va kommunikatsiya, neft va gaz, kimyo sanoati, qurilish, savdo, turizm hamda yuqori texnologiyalar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini bildirib ushbu tashrif O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari, umuman, butun arab dunyosi bilan aloqalarni mustahkamlash uchun muhimligini alohida e'tirof etdi⁵.

Qatar amiri Shayx Hamad bin Xalifa Ol-Soni Qatar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, jamiyat va davlat hayotining har tomonlama modernizatsiya qilinishi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyatining oshirilishini katta qiziqish bilan kuzatayotganini bildirdi. Qatar ishbilarmon doiralari O'zbekistondagi investitsion loyihalarga katta e'tibor qaratayotganini va Prezident Islom Karimovning O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Ummon va Qatarni bog'lovchi transport yo'lagini tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi. Shuningdek, Qatar amiri O'zbekiston Prezidentining mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi siyosiy harakatlarini yuqori baholadi.

O'zbekiston va Qatar xalqaro maydonda, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Islom hamkorlik tashkiloti kabi muhim xalqaro tuzilmalar doirasida hamkorlik qilib kelayotgani ta'kidlandi.

Islom Karimov ilgari surgan transport va aloqa yo'lagini yaratish tashabbusi alohida e'tibor markazida bo'ldi. Yaqinda Tehronda O'zbekiston, Eron, Ummon va Turkmaniston vakillari uchrashib, transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalarini muhokama qilishgani ma'lum qilindi. O'zbekiston va Turkmanistonni janubiy Eron portlari bilan bog'lovchi temir yo'l tarmog'ini qurish Fors va Ummon ko'rfazi mamlakatlarini Markaziy Osiyo bilan bog'lovchi muhim transport

⁴ الأوزبكستانية العربية العلاقات تطور 20.12.2011 URL- <https://muhammad-2010.blogspot.com/>

⁵ الرئيس الأوزبكي يصل الدوحة. 24.11.2010. URL: <https://www.raya.com/>

yo‘nalishini yaratish imkonini beradi. Avtomobil va dengiz transporti orqali tranzit yuk tashish hajmini oshirish, savdo hajmini ko‘paytirish ham rejalashtirilgan. Qatarning bu jarayonda ishtirok etishi mintaqadagi investitsion hamkorlikni yanada kengaytirish imkonini yaratadi. O‘zbekistonning "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi katta investitsion va sanoat salohiyatiga ega bo‘lib, ushbu transport yo‘lagini rivojlantirishga turki bo‘lishi mumkin.

Qatar poytaxtida O‘zbekiston va Qatar ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida o‘tkazilgan biznes-forumtashkil etish masalalari muhokama etildi.. Ushbu tadbir doirasida savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlik istiqbollari belgilandi. Bunday uchrashuvlar har ikki mamlakat iqtisodiy salohiyati bilan yaqindan tanishish va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Qatarda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch" kitobi arab tilida nashr etildi va Doha universitetida taqdimoti o‘tkazildi. Ushbu kitobning chop etilishi O‘zbekiston yetakchisiga, O‘zbekiston xalqiga, uning ma’naviy qadriyatlariga, Movarounnahr allomalarining jahon ilm-fani va madaniyatiga qo‘sghan hissasiga bo‘lgan yuksak hurmat ifodasi sifatida baholash mumkin.

Ushbu tashrif ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlар tarixida oliv darajadagi birinchi uchrashuv bo‘lib, ikki davlat o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni har tomonlama kengaytirish va rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni yaratdi hamda o‘zaro hamkorlikka katta imkoniyatlarni ochib berdi.

2018 yil 16-18 iyulda Qatar Tashqi ishlar vazirligi Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik departamenti boshlig‘i Xolid Ibrohim Al-Hamar boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifi doirasida tashqi ishlar, investitsiya, turizm, savdo-sanoat, transport masalalari uchun mas‘ul vazirlik, idoralarda muzokaralar o‘tkazildi.

2019-yil 15-iyun kuni Dushanbeda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo‘yicha kengashning V sammiti, 2022-yil 5-fevralda Pekinda qishki Olimpiya o‘yinlari ochilishi marosimi hamda 2022 yil 13-oktyabr kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo‘yicha kengashning VI sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar amiri shayx Tamim ibn Hamad al Soniy o‘rtasida samimiy muloqotlar bo‘lib o‘tgan⁶.

2021-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan tender natijasiga ko‘ra, Qatarning “Nebras Power” kompaniyasi, Fransiyaning “EDF” va Yaponiyaning “Sojitz Corporation” shirkatlari bilan birga tuzilgan konsorsium asosida Sirdaryoda issiqlik elektr stansiyasi qurilishi loyihasi amalga oshirildi. Quvvati 1600 MVt mazkur korxonaga jami 1,2

⁶ O‘zbekiston – Qatar munosabatlari yaqin tarixiga nazar 03.03.2025 URL: <https://uza.uz>

milliard dollar investitsiya kiritilishi va 2024-yil foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

2021-yil 6-8-aprel kunlari Qatar fuqarolik aviatsiyasi va "Qatar Airways" kompaniyasi vakillaridan iborat delegatsiyaning poytaxtimizga tashrifi davomida ikki davlat hukumatlari o'rtasida Havo qatnovi to'g'risidagi bitimni imzolashga tayyorlash hamda Doha – Toshkent – Doha yo'nalishi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri havo qatnovini yo'lga qo'yish masalasi muhokama qilingan edi. 2024-yil 2-iyun kuni esa Qatarning Hamad xalqaro aeroporti orqali Qatar Airways Airbus 320 samolyoti Toshkent xalqaro aeroportiga rasman qo'ndi. Hamda Toshkentga haftasiga to'rt marta reysni amalga oshirib va yo'lovchilarga uzluksiz safarlarni ta'minlashni boshladi. Ushbu yangi yo'nalish Qatar hamda O'zbekiston aholilarining uchun turizm imkoniyatlarini kengaytiradi va osonlashtiradi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, Hamad xalqaro aeroporti orqali butun dunyo bo'ylab 170 dan ortiq yo'nalishlar bo'yicha parvozlarni amalga oshiradi. Shuningdek, "Qatar Airways" aviakompaniyasi xalqaro havo transporti reytingini belgilovchi "Skytrax" tashkiloti tomonidan 2024-yilgi World Airline Awards mukofotida sakkizinchı marta "Dunyoning eng yaxshi aviakompaniyasi" nominatsiyasida g'olib bo'ldi. Ushbu aviakompaniya 2011, 2012, 2015, 2017, 2019, 2021, 2022-yillarda ham dunyoning eng yaxshi aviakompaniyasi bo'lgan⁷.

"Qatar Airways Group" bosh ijrochi direktori Badr Muhammad Al-Meer shunday dedi: "Biz sayohatchilarga O'zbekistonning madaniy va iqtisodiy markaziga qulay kirish imkoniyatini taqdim etuvchi Toshkentni eng yangi manzilimiz sifatida tanishtirishdan xursandmiz. Ushbu yangi yo'nalish bizning Markaziy Osiyo bo'ylab global tarmog'imizni kengaytirish va yo'lovchilarimizga ko'proq sayohat imkoniyatlarini taqdim etadi. Biz Qatar va O'zbekiston o'rtaidagi aloqalarni mustahkamlangan aloqa va madaniy almashinuv orqali mustahkamlashga intilamiz"⁸- deb ta'kidladi.

Shuningdek, 2021-yilning 1-martidan Qatar fuqarolarining O'zbekistonga kirishi uchun 10 kunlik vizasiz rejim joriy etildi edi, 2023-yil iyun oyida esa bu muddat 30 kungacha uzaytirildi. O'zbekiston fuqarolari ham Qatarga vizasiz (fuqarolik passporti bilan) 30 kunlik muddatga kirish huquqini qo'lga kirtdilar⁹.

Darhaqiqat, vizalar olish tizimi soddalashtirilgani, to'g'ridan-to'g'ri reyslar turizm, savdo va odamlar o'rtaidagi aloqalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar

⁷ Qatar Airways is named the World's Best Airline at 2024 World Airline Awards 24.06.2024 URL: <https://www.worldairlineawards.com>

⁸ الخطوط الجوية القطرية تُشنّن رحلاتها الجوية إلى مدينة طشقند، في أوزبكستان 03.06.2024 URL: <https://www.qatarairways.com>

⁹ Qatar Visa for Uzbek Citizens Complete Guidance 28.11.2024 URL: <https://e-visa-qatar.com>

ochishi shubhasiz. Ikki davlat o'rtasidagi parvoz vaqtি hozir bor-yo'g'i uch yarim soatni tashkil etadi. O'zining zamonaviy silueti, jahon darajasidagi muzeylari, strukturaviy qurilish obyektlari va cho'l va sohil hududlari o'zbek sayyoohlarini o'ziga jalb etsa, o'zining ajoyib arxitekturasi va tarixiy ahamiyati bilan mashhur bo'lgan Samarqand, Buxoro va Xivaning qadimi shaharlaridan tortib, o'zining ajoyib landshaftlarigacha bir qator diqqatga sazovor joylari arab sayyoohlarida yuqori qiziqish uyg`otadi.

Diplomatik aloqalarning mustahkamlanishiga 2023-yil 7-may kuni Toshkentda Qatar elchixonasining ochilishi hamda 2023-dekabr oyida esa O'zbekistonning Dohadagi elchixonasi o'z faoliyatini yurida boshlashi muhim ahamiyat kasb etdi.

Hasan bin Hamza Hoshim Qatarning Toshkentdagи elchisi sifatida faoliyat yurita boshlagan bo`lsa, Ashraf Xo`jayev O'zbekistonning Dohadagi elchisi sifatida Qatar amiriga ishonch yorlig`ini topshirdi. Shu paytga qadar davlatlar diplomatik munosabatlarni Rossiya davlatidagi elchixonalari orqali amalga oshirishar edi.

2023-yil 6-7-iyun sanalari Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixida ilk bo'lgan ushbu tashrif hamkorlik va sheriklik munosabatlarining yangi davrini boshlab beradi. Ushbu oliy darajadagi muzokaralar yakunida **ikki davlat rahbarlari ishtirokida 15 ta ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi**. Ushbu hujjatlar savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, sarmoyalarni o'zaro rag`batlantirish va himoya qilish, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, bojaxona, mehnat munosabatlari, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar, madaniy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi¹⁰.

Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy Prezident Shavkat Mirziyoyevni Qatarga tashrif buyurishga taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoevning 2023-yil oktyabr oyida Dohaga bo'lib o'tgan rasmiy tashrifi 1997-yil 27-noyabr kuni o'rnatilgan ikki tomonlama diplomatik munosabatlarni rivojlantirish va o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi istiqbollarini ochishga kuchli turtki bo'ldi. Ushbu uchrashuv natijasida savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar, ijtimoiy himoya, turizm, va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga qaratilgan 9 ta ikki tomonlama hujjatlar, umumiy qiymati 12 milliard dollarlik bitimlar imzolandi.

Bunday faol muloqotning rivojlanishi tomonlarning ham ikki tomonlama munosabatlarni kengaytirish Markaziy Osiyo-Ko`rfaz mintaqaviy aloqalarni

¹⁰ Визит Эмира Катара в Узбекистан укрепляет двустороннее сотрудничество и партнерство 7.06.2023 URL: <https://uzbekistan.org>

mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni Markaziy Osiyo-Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi, Islom hamkorlik tashkiloti sammitlari, davlatimiz rahbarining arab davlatlariga tashriflari natijalari tasdiqlaydi.

2022-yilning 14-15-sentyabr kunlari Qatar tashqi ishlar davlat vaziri Sulton Al-Murayxi Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) sammitida ishtirok etish uchun Toshkentga tashrif buyurdi. Ushbu sammit davomida Qatar Davlatiga muloqot bo'yicha sherik maqomini berish to'g'risidagi qaror qabul qilindi¹¹. Qatarning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga muloqot bo'yicha hamkor sifatida a'zo bo'lishi mintaqaviy hamkorlik va birlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Qatar o'zining kuchli vositachilik qobiliyati bilan ko'plab mintaqaviy va xalqaro mojarolarda muzokaralarga muvaffaqiyatli yordam berdi. Bu ShHTning a'zo davlatlarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan missiyasiga mos keladi. Qatarning strategik joylashuvi va iqtisodiy qudrati ShHT doirasidagi savdo va sarmoyaviy imkoniyatlarni yanada oshirishi, iqtisodiy integratsiya va rivojlanish uchun yangi yo'llarni yaratishi mumkin. Qatarning barqaror rivojlanish va innovatsiyalarga sodiqligi qayta tiklanadigan energiya, infratuzilma va ta'lim kabi sohalarda hamkorlik tashabbuslarini ilgari surishi, ilg'or tajriba almashish va qo'shma loyihalarni ilgari surish orqali ShHT a'zolariga foyda keltirishi mumkin. Umuman olganda, Qatarning muloqot bo'yicha hamkor sifatida faol ishtirok etishi ShHTning yanada o'zaro bog'langan va farovon mintaqa yaratish borasidagi sa'y-harakatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

O'zbekiston va Qatar Markaziy Osiyon-Ko'rfaz arab mamlakatlari bilan bog'lovchi eng qisqa, ishonchli va xavfsiz transport-logistika yo'laklarini shakllantirishdan manfaatdor. Transafg'on temir yo'l koridorini yaratish bo'yicha strategik loyihani birgalikda amalga oshirishga ko'maklashish istiqbollari muhokama qilinmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar ko'rsatkichlari mamlakatlarimizning bugungi salohiyatiga to'g'ri kelmaydigan o'zaro tovar ayirboshlash hajmini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi.

Qatar O'zbekistonning Ko'rfaz mamlakatlari hamkorlik kengashidagi birinchi strategik hamkori bo'ldi. Xatomonlar xalqlarining farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan yangi, yanada mustahkam va ishonchli hamkorlik ko'priklarini barpo etilmoqda. O'zbekiston va Qatar oldida Markaziy Osiyo va Ko'rfazmintaqalari o'rta sidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha juda muhim vazifa turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2025-yilda Samarqand shahrida Markaziy Osiyo va Ko'rfaz hamkorlik kengashiga a'zo davlatlar rahbarlarining ikkinchi sammiti bo'lib o'tishi hamkorlikda yangi sahifa ochadi. Shubhasiz, ikki davlatning tarixi, madaniyati va diniy mushtarakligi, boy ma'naviy merosi madaniyatlararo muloqotni

¹¹ Misr va Qatar SHHTning muloqot bo'yicha hamkoriga aylandi 14.09.2022 URL: <https://www.gazeta.uz>

mustahkamlah va hamkorlik aloqalarini yana-da rivojlantirish asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

O'zbekiston va Qatar o'rta sidagi munosabatlar so'nggi yillarda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilib, mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim omilga aylandi. 1997-yilda o'rnatilgan diplomatik aloqalar bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, investitsion va madaniy-gumanitar sohalarda chuqur va keng qamrovli hamkorlikka aylandi. Qatarning yirik investitsiyalari masalan: Sirdaryodagi issiqlik elektr stansiyasi loyihasi va transport infratuzilmasini rivojlantirish tashabbuslari O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarini qo'llab-quvvatlamoqda. Shu bilan birga, Qatar Airways'ning Toshkentga to'g'ridan-to'g'ri reyslarni yo'lga qo'yishi savdo va turizmni rivojlantirishga yangi imkoniyatlar ochdi. Madaniy va ilmiy sohalardagi aloqalar ham chuqurlashib, tarixiy-madaniy meros, fan va sport yo'nalişlarida o'zaro almashinuvlar rivojlanmoqda. Bu esa Qatar va O'zbekiston xalqlari o'rta sidagi do'stona rishtalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Har ikki davlat xalqaro maydonda hamkorlikni mustahkamlab, global muammolarni hal etishda o'zaro qo'llab-quvvatlash siyosatini yuritmoqda. Xususan, Afg'oniston orqali Transafg'on temir yo'li kabi strategik loyihamar mintaqaviy integratsiyaga yangi sur'at bag'ishlaydi. Kelajakda tomonlar transport-logistika, texnologiya va yashil energetika sohalarida hamkorlikni kengaytirishni rejalashtirgan. Bunday faol muloqot va do'stona munosabatlar ikki davlatning xalqaro nufuzini oshirib, butun mintaqqa taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Yana bir muhim jihat, "O'zbekiston-2030" strategiyasi va "Qatar Milliy nigohi - 2030" dasturi ko'p tomondan bir-biriga hamohangdir. Xususan, ikki mamlakatning ushbu muhim hujjatlari milliy urf-odat va an'analarga muvofiq jamiyatni modernizatsiya qilish va yangilash, hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish, barqaror rivojlanish yo'lida ma'muriy-buyruqbozlik tizimini isloh qilish, barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga erishish, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash singari vazifalarni o'z ichiga olgan. Umuman olganda, O'zbekiston va Qatar o'rta sidagi munosabatlar nafaqat o'zaro manfaatli, balki keng mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan barqaror va strategik sheriklik namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston – Qatar munosabatlari yaqin tarixiga nazar.02.10.2023-URL:
<https://uza.uz/posts/525155>
2. لدعم وفرصة الثنائية العلاقات في نوعية نقلة تشكل السمو صاحب زياره: أوزبكستان في قطر دولة سفير 05.06.2023-URL: <https://al-sharq.com/>

3. 24.11.2010-URL: [الدوجة يصل الأوزبكي الرئيس](https://www.raya.com/)
4. الأوزبكستانية العربية العلاقات تطور 20.12.2011URL- <https://muhammad-2010.blogspot.com/>
5. 24.11.2010. الرئيس الأوزبكي يصل الدوحة. URL: <https://www.raya.com/>
6. O‘zbekiston – Qatar munosabatlari yaqin tarixiga nazar 03.03.2025 URL: <https://uza.uz>
7. Qatar Airways is named the World’s Best Airline at 2024 World Airline Awards 24.06.2024 URL: <https://www.worldairlineawards.com>
8. 03.06.2024 الخطوط الجوية القطرية تُدشن رحلاتها الجوية إلى مدينة طشقند، في أوزبكستان URL: <https://www.qatarairways.com>
9. Qatar Visa for Uzbek Citizens Complete Guidance 28.11.2024 URL: <https://e-visa-qatar.com>
10. Визит Эмира Катара в Узбекистан укрепляет двустороннее сотрудничество и партнерство 7.06.2023 URL: <https://uzbekistan.org>
11. Misr va Qatar SHHTning muloqot bo‘yicha hamkoriga aylandi 14.09.2022 URL: <https://www.gazeta.uz>